



CHEXOV HAYOTI VA IJODINI O'RGANAMIZ!

¹ Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi, ² Xudoyberganova Ro'zaxon Oybek qizi, ³ Shamurodova Sunajon Odilbek qizi, ⁴ Xushanov Alisher Oydin o'g'li

^{1,2,3} Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

⁴ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227488>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

Rus adabiyoti, O'zbek adabiyoti, dramaturgiya Chexov, Abdulla Qahhor, "Garov" hikoyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada biz adabiyotda Chexov ijodini tutgan o'rnini belgilash va shu ijoddagi ideallik obrazi keng talqin etilishi haqida fikr yuritamiz.

Barchamizga ma'lum va mashhur bo'lgan Anton Pavlovich Chexovni bilmaydigan inson bo'lmas kerak. Hozirgi kunda o'zbek adabiyotini o'rganish bilan birga rus adabiyoti namoyondalarini ham o'rganish juda zarur. Keling bu maqolamizda Chexov hayot va ijod yo'llarini oz bo'lsada yoritib o'tamiz. 1860-yilning 29-yanvarida Rossiyaning Taganrog shahrida tug'ilgan. Chexovning akasi ichkilikka mukkasidan ketgani sabab o'zini o'zi xarob qilib boradi bu holatni ko'rgan Chexov "Millatning kuchli bir iste'dodi o'lyapti, hech bir sababsiz o'lyapti" deb nadomat chekadi.

U XIX-XX asrning boshlarida yetuk hikoyachi dramaturg deb tan olingan. 1880-yillarda Chexov shifokor sifatida ishlaydi va o'z nomi ostida bir qator jiddiy adabiy asarlarni nashr etadi. Keyinchalik esa uning pyesalari NYU-YORK Tayms gazetalarida bosilib chiqadi. Shuningdek Chexovning "Cho'l" nomli hikoyasi 1888-

yilda Pushkin nomidagi mukofotga sazovor bo'lgan. Bu davrlarda Chexov teatr sohasiga bir qator asarlar yozgan va rus dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Shu qatorda Chexov ijodini o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalarining ijodi bilan solishtiradigan bo'lsak, juda ham ko'p o'xshash jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan Abdulla Qahhorning hikoyalarini oladigan bo'lsak, ikkala yozuvchi ham o'z hikoyalarini aniq, sodda, lo'nda va chuqur ma'nodor tarzda ifodalagan. Chexovning hikoyalarida rus millatiga xos sifatlar ko'zga tashlansa, Abdulla Qahhor hikoyalarida o'zbek xalqining milliyliigi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Asar qaysi millat vakili tomonidan yozilmasin, baribir unda yotadigan g'oyalar o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liq. Chexov shunday degan edi: "Adabiyot-mening mashuqam, tabobat esa rafiqam" dir.



U juda tarbiyali va ma`rifatparvar inson bo`lgan. Tarbiyali odamlar haqida shunday deydi:

Hurmat qilish xushmuomala, murosali bo`lish

Ular oddiy ko`z bilan ko`rinmaydigan narsalar uchun ham qayg`uradilar

Birovning mulkini hurmat qiladilar

Yuragi toza, yolg`on gapirishdan qo`rqadilar

Boshqalar rahmini keltirish uchun yordam olish uchun o`zlarini yerga urmaydi

Mayda narsalarga berilmaydi

O`zlarini ma`naviy tarbiyalab boradilar.

Chexov insoniyat o`rtacha umrining uchdan birini yashab 44 yoshida dunyodan ko`z yumgan. Umrining oxirigacha Lev Nikolayevich bilan hamnafas bo`lib yashadi. Bularning barchasi rus xalqi uchun edi. Chexovning zamondoshlari u haqida yaxshi so`zlar aytishadi va uning asarlarini sevib o`qishgan. Uning asl kasbi shifokor bo`lsa ham erta olamdan o`tdi. 10 yoshdan boshlab o`pka sili bilan og`rib kelgan keyinchalik kasallik kuchayadi. Uning mashhurligi, ijodi ortgan sayin kasalligi ham zo`rayib huddi u bilan yonma-yon boradi. Chexov insonlarning qalblarida shunday iz qoldirib ketgan-ki, uning hikoyalarini o`qiganda obrazi dialoglari aniq esda qolmasa ham qalb to`riga joylashib his-tuyg`ularni larzaga keltiradi. Goh kuldiradi, goh yig`latadi. Kuchli ta`sir ko`rsatadi. Chexovning hayoti go`yoki mantiq kabi edi. Chuqur o`ylasa ham yengil yozar edi. Keyinroq dunyoqarashidagi g`oyalarni jiddiylashtiradi natijada asarning mag`zi murakkablashadi. Soni kam bo`lsa ham, ma`no hajmi ortadi. Chexovning o`zi aytadi: "Mayda hikoyalar yozganda so`zni ortiqcha isrof qilgandan ko`ra keraklilarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak".

O`z atrofiga buyuk insonlarni yig`adi. Tolstoy, Gorkiy, Bunin, Korolenko va boshqalar uni juda yaxshi ko`rishgani bejiz emas. U hamma uchun na`muna bo`ldi. U o`lganida buyuk yozuvchilar iztirob chekkan bo`lsa unda butun rus xalqi qay ahvolga tushgan ekan? Balki u yozgan oltinga teng asarlarni o`qib panoh topishgandir. Ya`ni uning mangu ruhi shu asarlarda yashayaptiku. Chexov tarixda qora davrdagi yorqin yulduz, ideal inson, dramaturg va buyuk gumanist sifatida iz qoldirdi.

Endi uning asarlariga qaytsak. Bilamizki har bir yozuvchi asarida o`z ichki holat va hissiyotlarini ifodalaydi. Bo`sh varaqni dardlari ila bezaydi. Xuddi shu holatni Chexovning ijodida kuzatishimiz mumkin. Uning asarlarida insonning go`zal fazilatlarini bilan birga qabih qilmishlari ham ochiq oydin yoritib berilgan. Bilamizki ezgulik bor joyda albatta yovuzlik ham yonma-yon yuradi. Chexov ijodida ana shu fazilatlar inson qiyofasida ko`rsatib berilgan. Chexovning "Xameleon" hikoyasi buyuk o`zbek adibi Abdulla Qodiriy tarjimasida "Sho`ro adabiyoti" da chop etilgan. Hameleon bu o`zgaruvchan odamlar haqidagi hikoya. Odamlar har voqeaga turlicha yondashadilar. Ya`ni vaziyatlarga turlicha moslashadilar. Bu esa tashqaridan kulgili ko`rinadi. Hikoyaga hameleon deb nom berilishining o`zi ham bir ma`noga ega. Inson o`z manfaatiga erishish uchun sharoitlarga moslashishga tayyor. Bu yerda lavozim ko`p narsani berishi mumkin degan fikr yotadi. Insonlar o`zlarini biron bir vaziyatlarda turlicha namoyon qilishadi, albatta, o`z manfaatini ko`zlab. Chexov bu hikoyasida Ochumelov singari noinsof "hameleon"larni kalaka qiladi. Chunki unday insonlar vaziyatga



qarab o'z fikrini o'zlari uchun eng foydali tomonga o'zgartirishadi. Biz esa bunday insonlardan to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak. Yozuvchi Chexov nozik psixolog bo'lgan. Uning asarlarida insonlar harakteri goh go'zal, goh qabih ko'rinishda aks etadi. Buni "Hameleon" hikoyasida ko'rishimiz mumkin. Endi esa uning keyingi hikoyasini oladigan bo'lsak, "Garov" hikoyasida bankir qiyofasidagi ko'pchilik insonlarning pulga bo'lgan hirs, ilmning boylikdan ustun qo'yilishi va shu bilan bir qatorda ilmning qanchalar odamzot uchun zarurligi, hayotda to'g'ri qaror qabul qilish singari xususiyatlar tilga olingan. Uning qahramonlari mashhur insonlar emas, balki oddiy rus xalqidir. Chexov asarlaridagi bunday obrazlar insonlarga o'rnak bo'la oladigan holat va harakatlarni to'liq ask ettiradi. Sodda va ijodiy bo'yoqdan oqilona foydalanib, o'z asarlari bilan muxlislarining diqqatiga sazovor bo'ladi. Uning qaysi janrdagi asar va hikoyasini olmaylik barchasida insonga xos sifatlarni ko'rishimiz mumkin. Hozirda ko'pchilik uning chexovshunoslik deb atalgan yo'nalishini targ'ibot qilishmoqda. Chexov ijodi, dramaturgiyasi, hikoyashunosligi va boshqalarni o'rganish ishlari bugunga qadar davom etmoqda. Shu borada biz ham Chexov ijodiga yuqorida to'xtalib o'tganmiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Chexovning asarlarini o'qish uchun bizga juda ko'p vaqt ham kerak emas o'n o'n besh daqiqada o'qib chiqishimiz mumkin lekin shu asarlarni yaxshilab e'tibor bilan o'qigan inson katta bir asarni o'qigandan ham ko'p xulosa olishi mumkin. Yirik hajmli hikoyalardan ko'ra, hajmi kichik ma'noli hikoyalarning yaxshi tarafi ularni vaqtdan yutgan holda tez fursatda o'qib chiqish mumkin. Asarlarning asosiy e'tibor beradigan joyi shundaki bu uning qanday va qaysi vaqtda yozilganida emas, balki uning bizga bera oladigan ma'naviy ozuqasidadir. Chexovning hikoyalaridagi kulsang o'zing hijolat chekadigan, yig'lasang haqqing ketadigan personajlar ma'rifatparvar rus yozuvchisining hasratlari, ichki kechinmalari, dardlari, ko'z oynagi shishasini qamrab olgan achchiq ko'z yoshlari edi. Uning asarlaridan biz yoshlar juda katta xulosalar olishimiz mumkin. Inson badiiy asar qanchalik ko'p o'qisa, u hikoya bo'lsin she'r yoki roman bo'lsin, uning saviyasi, fikrlashi, dunyoqarashi va ongi shunchalik o'tkir va boy bo'ladi. Albatta o'ziga yoqqan biron bir asarni sevib o'qisa.

Faqat Chexovgina emas boshqa rus va chet el adabiyoti namoyondalarining asarlarini ham yaxshi ko'rib o'qish lozim.

References:

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova, "11-sinf adabiyoti" Toshkent - 2018. 162 - bet
2. www.saviya.uz
3. www.Oriftolib.uz